

**TO‘QUVCHILIK TEXNOLOGIYASIDA TO‘QIMA TUZILISHIGA TA’SIR
ETUVCHI OMILLARNI TAXLIL QILISH**

Farpi asissenti: Baxtiyorova O'g'iloy Anvarjon qizi

**TO‘QUVCHILIK TEXNOLOGIYASIDA TO‘QIMA TUZILISHIGA TA’SIR
ETUVCHI OMILLARNI TAXLIL QILISH**

*YSTJ yo'nalishi El 90-21 guruh talabalari:
Maxmudova Irodaxon Baxtiyorjon qizi*

**LAYING FACTORS AFFECTING TISSUE STRUCTURE IN WEAVING
TECHNOLOGY**

Baydullayeva Guljahon Avazbek qizi

**АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА СТРУКТУРУ ТКАНИ В
ТЕХНОЛОГИИ ТКАЧЕСТВА****Annotatsiya**

Assortimentni yaratishda to‘qima tuzilishi ko‘rsatkichlarini tanlash katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular to‘qima xossalarini belgilaydi. To‘qimani xususiyatlari quyidagi omillarga bog‘liq - xom-ashyo tarkibiga va iplarning turiga, ipning chiziqli zichligiga, tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligini nisbat koeffitsentiga, ipning ko‘ndalang kesimining o‘lchamlariga to‘qima xosil bo‘lgunga qadar, xamda to‘qimada, to‘qimadagi tanda va arqoq iplarining o‘rilishiga (rapport), iplarning kesishish soniga, siljishga, to‘qimadagi qatlamlar soniga, tanda va arqoq bo‘yicha to‘qima zichligiga, to‘qimadagi tanda va arqoq zichliklarini nisbat koeffitsentiga, to‘qimadagi tanda va arqoq iplirining qisqarishiga, to‘qimani ishlab chiqarishda texnologik omillarga (tanda va arqoq iplarning tarangligi) va to‘qimani pardozlashda texnologik omillarga va hokazo.

Kalit so‘zlar: to‘qima, omillar, xom-ashyo, tanda va arqoq, pardozlash jarayoni.

ABSTRACT

The choice of fabric structure parameters is very important when creating an assortment that determines the properties of the fabric. The properties of the fabric depend on the following factors - the composition of the raw material and the type of yarn, the linear density of the yarn, the ratio of the linear density of the main and purl threads, the size of the cross section of the thread. yarn before the formation of the canvas, In the section, the ratio of the density of the warp and purl fabric, the density

of the warp and purl fabric, the shortening of the warp and purl threads in the fabric, the technological factors of fabric production (the tension of the warp and purl threads) and the technological factors of finishing the fabric, etc.

Keywords: fabric, factors, raw materials, body and back, make-up process.

Аннотация

Большое значение при создании ассортимента имеет выбор показателей структуры тканей, которые определяют свойства тканей. Свойства ткани зависят от следующих факторов - в зависимости от состава сырья и типа нити, линейной плотности нити, коэффициента соотношения линейной плотности нити танды и Каната, размеров поперечного сечения нити до образования ткани, а также от количества сечений нити, смещения, количества слоев в ткани, плотности ткани по Танде и канату, коэффициент соотношения плотностей загара и каната в ткани, усадка загара и каната в ткани, к технологическим факторам при изготовлении текстиля (натяжение нитей в Танде и канате) и технологическим факторам при отделке текстиля и т.д.

Ключевые слова: текстура, факторы, сырье, загар и канава, процесс отделки.

KIRISH

Ilmiy ishda erkaklar uchun kuylakbop to‘qimani tuzilishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida, to‘qima o‘rilishi, xom ashyoning chiziqli zichligi va tolaviy tarkibi omillari belgilab olindi. Xom ashyoning tolaviy tarkibining to‘qima tuzilishiga ta’siri o‘rganish uchun to‘qimaning yuqorida qayd etilgan barcha taxtlash omillari o‘zgarmas bo‘lib, turlicha tolaviy tarkibli xom ashyo tanlandi. I variant erkaklar kuylakbop to‘qimasi tanda va arqoq uchun paxta tolali iplari; II variant to‘qima tanda paxta tolali va arqoq ipak ipi; III variant to‘qima tanda paxta tolali, arqoq uchun poliefir tolali iplardan foydalanildi. Erkaklar kuylakbop to‘qimalarning taxtlash omillari xisobi bajariladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba sinovlari natijalari taxlili bo‘yicha kuylakbop to‘qimalarning tuzilishiga xomashyoning tolaviy tarkibi ma’lum darajada to‘qimaning fizik-mexanik xususiyatiga va tashqi ko‘rinishiga ta’sir qiladi. To‘quv o‘rilishining to‘qima tuzilishiga ta’sirini aniqlash maqsadida erkaklar uchun kuylakbop matoning taxtlash omillari o‘zgarmas bo‘lib, I variant to‘qima polotno o‘rilishida; II variant to‘qima noto‘g‘ri satin va III variant to‘qima siniq sarja naqshli mayda naqshli o‘rilishlarda ishlab chiqarildi. To‘qima o‘rilishlarining to‘liq taxtlash dasturlari shakllantirilgan. To‘qima yuzasini to‘ldirish darajasi, tanda va arqoq bilan to‘ldirilgan yuzani to‘qima yuzasi nisbatiga aytiladi $Z_{To'q} = Z_T + Z_a - Z_T \cdot Z_a$ (1.3)

Turli o‘rilishli to‘qimalarda, iplarning ma’lum chiziqli zichligi hamda to‘qimaning tanda va arqoq bo‘yicha zichliklari teng to‘qima yuzasini to‘ldirish ham bir xil bo‘ladi. Masalan, polotno va satin o‘rilishli to‘qimalar ipning chiziqli zichligini (TT, Ta), to‘qimaning tanda va arqoq bo‘yicha zichliklarini (RT, Ra), tanda va arqoq bo‘yicha o‘rilish rapportini va ipning rapport oralig‘ida kesishish sonini hisobga oluvchi umumiy ko‘rsatkich-bu to‘qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanish koefitsienti. To‘qimaning haqiqiy zichligi va maksimal zichligi nisbati to‘qimaning tolali material bilan qoplanish koefitsientini ifodalaydi. To‘qima tuzilish fazasi I-IV tartibli to‘qimalar uchun, arqoq bo‘yicha zichliklari maksimal, tanda bo‘yicha esa maksimal ko‘rsatkichdan kichik bo‘lishi kerak, chunki to‘qimani qoplanish koefitsienti ko‘rsatkichi:

-arqoq bo‘yicha ($K_{Na} > 1$) birdan yuqori bo‘lishi kerak.

-tanda bo‘yicha ($K_{NT} < 1$) birdan kichik bo‘lishi kerak. Tuzilish fazasi VI-IX tartibli to‘qimalar uchun, tanda bo‘yicha zichliklari maksimal, arqoq bo‘yicha esa maksimal ko‘rsatkichidan kichik bo‘lish kerak, chunki to‘qimani qoplanish koefitsienti ko‘rsatkichi:

-tanda bo‘yicha ($K_{NT} > 1$) birdan yuqori bo‘lishi kerak.

-arqoq bo‘yicha ($K_{Na} < 1$) birdan kichik bo‘lishi kerak. Tuzilish fazasi V tartibli to‘qimalar uchun, to‘qimani qoplanish koefitsienti ko‘rsatkichi tanda va arqoq bo‘yicha ($K_{NT} < 1, K_{Na} > 1$) birdan kichik bo‘lishi kerak, chunki to‘qimaning tanda va arqoq bo‘yicha haqiqiy zichliklari maksimal zichligiga nisbatan kichik bo‘lishi kerak.

NATIJARLAR

Tajriba natijalariga ko‘ra to‘qima o‘rilishi to‘qimaning tuzilish fazasi V tartibli to‘qimalarni ishlab chiqarilishi murakkablashadi, chunki tanda va arqoq bo‘yicha qoplanish koefitsientlari K_{NT} va K_{Na} ko‘rsatkichlari birga yaqinligi va to‘qimaning qoplanish koefitsienti K_{NT} to‘q ko‘rsatkichi ham birga yaqindir. Keyingi ilmiy izlanishlar kuylakbop matoning xomashyo tolaviy tarkibi va uning chiziqli zichligi ta’sirini o‘rganish maqsadida Tanda ipi bo‘yicha $TT = 15 \times 2$ teks chiziqli zichlikni qabul qilamiz, u holda tanda ipining diametri $d_T = 0,22$ mm dan iborat bo‘ladi. Qabul qilingan qiymatlarni (2) formulaga qo‘yamiz va tanda ipi bo‘yicha $RT = 200$ ip / dm, $RA = 250, 300, 350$ ip / dm zichlikka ega bo‘lamiz. Arqoq bo‘yicha kalava ipining chiziqi zichligi $TA = 25$ teks, u holda arqoq ipining $d_a = 0,19$ mm dan iborat bo‘ladi.

XULOSA

Maqolada yangi to‘qima assortimentlarini yaratish va ularni ishlab chiqarish uchun to‘qimani to‘quv dastgoxida ishlab chiqarish omillari tanlandi va yangi to‘qima loyixalash texnik vazifalari bajarildi. Loyixaning birinchi bosqichida loyixalanayotgan to‘qima erkaklar ko‘ylakbop to‘qima bo‘lib, tanda iplari paxta tolali 10 gr teks, arqoq iplari esa 8 poliefir iplaridan shodali to‘quv dastgoxida tajribaviy to‘qima namunalari olindi. To‘qima o‘rilishlari shodali to‘quv dastgoxlarida ishlab chiqarilib, o‘rilishi

polotnoda olingan bo'lib erkaklar uchun mo'ljallangan kuzgi va baxorgi ko'ylakbop to'qimalar uchun mo'ljallangan to'qimalar ishlab chiqildi. Maqolada ko'ylakbop to'qimalarni ishlab chiqarish omillari asosida to'qima to'qildi, ikkinchi bosqichida yangi to'qimaning "texnologik xisobi bajarildi" ishlab chiqildi. Texnologik xisobi chiqqan natijalar asosida Toshkent to'qimachilik va texnologiya institutining "To'qimachilik matolari texnologiyasi" kafedrasidagi TAYOTA Jat-810 to'quv dastgoxida namunalar olindi hamda istemol xossalari o'rganildi.

REFERENCES

1. Рахимходжаев С.С. Совершенствование регулирования натяжения нитей основы на бесчелночных ткацких станках при выработке шелковых тканей. Дисс. Канд.техн.наук. Ташкент, 1984г
2. Баймуратов Б.Х. Совершенствование процесса отпуска и натяжения нитей основы на ткацком станке. Дисс. Канд.техн.наук.,Ташкент. ТИТЛП, 1998 й
3. Кадирова Д.Н. Исследование и стабилизация натяжения нитей основы на бесчелночных ткацких станках. Дисс. Канд.техн.наук., Ташкент, ТИТЛП., 2002 й
4. Букаев П. В. Разработка параметров оптимального процесса бесчелночного ткачества и критериев его оценки: Автореф. дис. докт. техн. наук.– Ленинград: ЛИТЛП, 1984 й.–36 с.
5. Могильный А.Н. Разработка технологии, методов проектирования и исследование структуры и свойств текстильных материалов технического назначения: Автореф. дис. докт. техн. наук. – Санкт – Петербург: СПбГУТид, 2000 й. – 36 с.

AN IMPORTANT FACTOR OF SPIRITUAL-SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation. It is reflected in the article that spirituality is one of the priority directions of the development of our country, which goes its own way in further raising the spirituality of our people, raising the level of national and universal humanism of all people.

Key words: spirituality, society, enlightenment, universal values, national values, spiritual heritage, development.

Respublikamizning bugungi ma'naviy-ma'rifiy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlarni ko'rsak bo'ladi. Asriy qadriyatlarimiz va milliy an'analarimiz tiklanmoqda va mustahkamlanmoqda. Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Har bir jamiyatda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy

fazilatlari qiyofasi majmuidir. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal

qilish hissidir. Bu masala har bir jamiyatda yetakchi o'rinda turmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: “biz ko'p yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'ldik. Unga sarflanadigan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'ldi. Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik. Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim. Va nihoyat, shu sohalarda va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislar-chinakam ziyolilardir”.

Ma'rifat – mohiyatan aql-idrok, tafakkurning mayog'i, mijozning murabbiysi, qallda munavvarlikni, insoniy ulug'vorlikni qaror toptiruvchi umriy vosita, iymone'tiqod, harakter, lafzning me'mori, vujudning jon tomiri. U –bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir. Ma'naviyat va ma'rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ma'naviyat yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ularga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga etaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

Ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma'naviyatning siyosiy, falsafiy va ilmiy shakllari yuzaga kelgan.

Shunday qilib, ma'naviyatning tarkibiy tizimini quyidagilar tashkil qiladi:

- tarbiyaga oid qarashlar va axloqiy ta'lim;
- diniy qarashlar va diniy ta'lim;
- badiiy qarashlar va badiiy ta'lim;
- falsafiy qarashlar va falsafiy ta'lim;
- siyosiy qarashlar va siyosiy ta'lim;
- huquqiy qarashlar va huquqiy ta'lim;

ilmiy qarashlar va fan jami tabiiy va gumanitar fanlar ham shu guruhga kiradi. Bularning har qaysisi tadqiq predmetiga ega. Ular ma'lum ijtimoiy vazifani bajarishga da'vat etilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyatli komil insonni tarbiyalashda muhim mavqe tutadi.

REFERENCES

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq, 1998. 20-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017, 9-bet.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: "Ma'naviyat", 1998, 34-bet.